



**TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR ORQALI FORTEPIANO
CHOLG'USINI O'RGATISHDA KOMPOZITORLAR ASARLARINING
ROLI**

Abdug'aniyeva Gulnoza Mamatkarim qizi,
Mamadaliyeva Movludaxon Toirxon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Magistratura bo'limi,
Musiqqa ta'limi va san'at mutaxassisligi
1-bosqich magistrantlari

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar fonida fortepiano cholg'usini o'rgatish jarayonida kompozitorlar asarlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Forteplano ijrosi bo'yicha talabalarining texnik va musiqiy mahoratini shakllantirishda klassik va zamonaviy kompozitorlarning asarlaridan samarali foydalanish metodikasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, islohotlar ta'lim dasturlariga kiritgan yangiliklar, repertuar tanlash me'zonlari va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan uslublar yoritiladi. Kompozitorlarning boy ijodiy merosi fortepiano o'rgatishda nafaqat texnik rivojlanishga, balki talabalarining musiqiy tafakkur va estetik didini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Forteplano o'rgatish, kompozitorlar asarlari, ta'lim tizimi islohotlari, musiqqa ta'limi, repertuar tanlash, texnik va ijro mahorati, estetik tarbiya, musiqiy tafakkur.

Аннотация

В данной статье анализируется роль композиторских произведений в обучении игре на фортепиано на фоне проводимых реформ в системе образования. Рассмотрена методика эффективного использования произведений классических и современных композиторов в формировании технических и музыкальных навыков учащихся по исполнительству на фортепиано. На ней также будут освещены новшества, которые реформы внесли в образовательные программы, критерии отбора репертуара и методы,



служащие повышению эффективности образовательного процесса. Богатое творческое наследие композиторов способствует не только техническому развитию в обучении игре на фортепиано, но и формированию музыкального мышления и эстетического вкуса учащихся.

Ключевые слова: обучение игре на фортепиано, произведения композиторов, реформирование системы образования, музыкальное образование, подбор репертуара, техническое и исполнительское мастерство, эстетическое воспитание, музыкальная мысль.

Annotation

This article analyzes the role of composers' works in the teaching of the piano against the background of ongoing reforms in the education system. The methodology of effective use of the works of classical and modern composers in the formation of technical and musical skills of students in the performance of the fortepiano is considered. It will also highlight the innovations that the reforms have introduced into educational programs, the repertoire selection criteria and the methods that serve to improve the effectiveness of the educational process. The rich creative heritage of composers contributes not only to technical development in teaching piano, but also to the formation of musical thinking and aesthetic taste of students.

Keywords: teaching piano, works of composers, reforms of the education system, music education, selection of repertoire, technical and performing skills, aesthetic education, musical thought.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Musiqa ta'limi sohasida ham zamonaviy talablar asosida o'quv dasturlarini yangilash, pedagogik metodikalarni takomillashtirish va o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, fortepiano o'rgatish jarayonida kompozitorlar asarlaridan foydalanish



o'quvchilarning texnik mahoratini oshirish, musiqiy tafakkurini rivojlantirish va estetik didini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

San'at mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday bir joylari borki, u yerga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin. Mustaqillik yillaridan boshlab san'at va madaniyatga alohida e'tibor berilgan, yangi O'zbekistonning tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish. Aholi, xususan yoshlar madaniy saviyasini yuksaltirish, ulardagi bor bilimlarni yanada rivojlantirish hozirgi kundagi dolzarb mavzulardan biridir. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Bundan tashqari, ingliz san'atshunos olimi F.R.Martini "Temuriylar singari san'at va madaniyatni qadrlaydigan hukmdor Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lmagan"- deb yozadi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi " Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu soha vakillarining keng ko'lamdagi san'atshunos yoshlarning uzoq kutilgan orzulari, istaklarini ro'yobga chiqarishga katta imkoniyat, sharoit yaratdi.

XXI-asr axborot texnologiyalar asri. Axborot texnologiyalarining san'at sohasida tutgan o'rni beqiyos. Chunki har bir musiqa yaratilishidan to'nglovchiga yetib borgunga qadar turli bosqichlardan o'tadi. Masalan, bir san'atkor o'z ijodini rivojlantirish yo'lida albatta axborot texnologiyalardan foydalanadi, ular, radio, ommaviy axborotlar, qo'shiq yozish studiyalari va h.q. Oliy ta'limlarda ham musiqa ta'limi yoki mutaxassislik fanlariga ham chuqur e'tibor qaratilmoqda. Har bir darslar malakali, darsga innovatsion yondashgan, darslarni ham amaliy ham nazariy va ko'rgazmali tarzda o'tadigan pedagoglar tomonidan tashkillanmoqda. Yoshlarning madaniyatini, dunyo qarashini, chet el talabalari bilan hamnafas bo'lishi uchun yurtboshimiz tomonidan barcha shart sharoitlar yaratib berilmoqda.

Fortepiano cholg'usi ijrochiligiga kelsak, bu asbobning tarixi juda qadim zamonlarda, ya'ni, qadimgi Yunonistonda borib taqaladi. Pifagor yashagan davrda "monoxord" deb nomlanuvchi cholg'u asbobi bo'lgan. Yollar davomida bu cholg'u takomillashib XII-asrda "Klavikord" cholg'u asbobi paydo bo'lgan. Bora bora rivojlanishlar natijasida "Fortepiano" cholg'u asbobi vujudga keldi. Fortepiano-bu



keng diapazonli, kuchli ovozga ega bo'lgan cholg'u bo'lib, boshqa hech qaysi musiqa cholg'usi bunday yorqin imkoniyatlarga ega emas.[1; 456,465-b]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fortepiano cholg'usida ijro texnikasini oshirish juda ham muhim hisoblanadi. Bunda mashqlar, gammalar, etyudlar yordamida amalga oshirish mumkin. Biz albatta ushbu jarayonni ham innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirishimiz mumkin. Masalan, mashqlarni yoki gammalarni elektro pianinoda turli ritmlar ostida ijot etish yordamida ham ijro texnikasi ham oquvchining informatsion-analitik kompetentligi osadi. Ammo klassik asarlar ijrosi albatta fortepianoda bo'lishi lozim, bunda o'quvchi asarning xarakterini, dinamik belgilarini, asarning mohiyatini va o'zining asar ijrosi davomidagi ichki kechinmalarini ifoda qila oladi. Fortepiano chalishni o'rgatish mazmunini belgilashda mazkur masala bo'yicha M.Lamentning ta'lim mazmuni haqidagi, V.Asafyevning musiqani yaratish, ijro qilish, idrok etishda ko'rinadigan musiqa san'atining uch birligi haqidagi S.Rappoportning bilish va aloqa faoliyatining ajralmas birligi bo'lmish musiqiy-ijrochilik faoliyat haqidagi, N.Vetluginaning musiqa san'atiga bolaning estetik munosabati, modeli haqida yetakchi psixologik-pedagogik va musiqashunoslik konsepsiyalarini jamlashga asoslanadi. Bu modelga uchta komponent, musiqani idrok va ijro etish hamda juz'iy musiqa yaratish bo'yicha ijodiy faoliyat tajribasini, musiqaga va musiqiy faoliyatga estetik munosabat tajribasi. Markaziy Osiyo kompozitorlari orasida birinchilar qatorida o'zbek fortepiano san'atining zabardast ustози Georgiy Mushel ijodini aytib o'tish joizdir. U o'zining "24 prelyudiya va fugalar" turkumida Baxshining kompozitorlik ijodiga xos polifonik uslubi asnosida o'zbekona ohanglardan to'g'ri va o'rinli foydalangan holda, o'ziga xos uyg'unlikni ifoda etib, mukammal ijodiy mahoratini yana bir bor namoyon etgan.[7; 345,356-b]

TAHLIL VA NATIJALAR

Fortepiano — musiqiy tafakkurni shakllantirish, badiiy ifoda vositalaridan foydalanishni o'rgatish va texnik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun eng muhim



cholgʻulardan biridir. Uni oʻrgatishda kompozitorlarning asarlaridan foydalanish oʻziga xos metodik yondashuvni talab etadi.

Islohotlar taʼlim tizimida fortepiano darslarini tashkil etish jarayonida quyidagi yangiliklarni joriy qildi:

Talabalarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda repertuar tanlash;

Klassik va zamonaviy kompozitorlarning asarlaridan kompleks foydalanish;

Musiqqa madaniyati va ijro sanʼatini uygʻun rivojlantirish;

Mustaqil ishlash va sahnada ijro etish koʻnikmalarini shakllantirish.

Kompozitorlarning asarlari fortepiano oʻrganishda koʻplab vazifalarni bajaradi.

Jumladan:

Texnik rivojlanish: Etyudlar orqali barmoqlar harakati va koordinatsiya rivojlanadi.

Musiqiy ifoda: Bachning polifonik asarlari, Beethovenning sonatalari va Shopenning preludiyalari orqali oʻquvchi musiqiy frazalash, dinamika va agogikani oʻzlashtiradi.

Ijodiy tafakkur: Zamonaviy kompozitorlar (Prokofyev, Debussy, Ravel) asarlarida esa talaba yangicha musiqqa shakllarini anglab, oʻz interpretatsiyasini rivojlantiradi.

Repertuar tanlashda yosh va daraja mezonlariga amal qilish muhim: boshlangʻich bosqichda oson va musiqiy xarakterga boy asarlar, oʻrta va yuqori bosqichda esa texnik va ifoda murakkabligi yuqori boʻlgan kompozitsiyalar tanlanadi.

Bundan tashqari, kompozitorlar asarlarini oʻrganish jarayonida quyidagilarga eʼtibor qaratiladi:

Asarning tarixiy va badiiy kontekstini tushunish;

Musiqiy obraz va emotsional mazmunni ochib berish;

Ijro davomida texnik mukammallik va musiqiy ifodaning uygʻunligini taʼminlash.[8; 457,468-b]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, taʼlim tizimidagi islohotlar fortepiano oʻrgatish jarayoniga yangi metodik yondashuvlarni olib keldi. Kompozitorlarning boy ijodiy merosi esa nafaqat texnik oʻsishni, balki musiqiy tafakkur, estetik did va badiiy ifoda koʻnikmalarini shakllantirishda asosiy omil boʻlib xizmat qilmoqda. Shuning uchun fortepiano taʼlimida kompozitorlar asarlaridan keng va maqsadli foydalanish



zamonaviy musiqiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. H.Nurmatov, N.Yo'ldosheva « O'zbek xalq musiqasi ijadiyoti» o'quv qo'llanma. - T.: «G'ofur G'ulom» nashriyoti, 2021 y. 456-465
2. M.Ismoilova «Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish» o'quv qo'llanma. - T.: «Istiqlol» nashriyoti, 2000 y. 567-575
3. H.Nurmatov, O.Ibrohimov «Musika» o'quv qo'llanma. - T.: « O'qituvchi» nashriyoti, 1997 y.
4. To'qqiz yillik majburiy ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fani dasturi. - T.: PJIM nashriyoti, 2012 y. 2-8
5. O.Fayzievva boshqalar.«O'zbekiston maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish buyicha metodik qo'llanma». - T.: «Navoiy azot» nashriyoti, 1992 y.
6. G.M.Sharipova. «Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish uchun metodik qo'llanma». -T.: RTM nashriyoti, 2001 yil. 321
7. X. Boymirzayev va boshqalar. «Musika o'rganish metodikasi». - T.: « O'qituvchi» nashriyoti, 1995 yil. 345-356
8. G. Sharipova «Musika va uni o'qitish metodikasi». - T. «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2011 y. 457-468.